
Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti Xorijiy til va
adabiyoti yo`nalishi
104- guruh talabasi
Kenjayev Azizbekning
Somoniylar davlati
mavzusidagi

REFERAT

Topshirdi:

Kenjayev Azizbek

Qabul qildi:

Jo`rayev Alisher

Namangan-2017

Mavzu: Somoniylar davlati.

Reja:

-
- 1. Somoniylar davlaninig tashkil topishi.**
 - 2. Somoniylar davlatida davlat boshqaruvi.**
 - 3. Somoniylar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.**

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Somoniylar

Somoniylar davlati	
	
<u>Poytaxti</u>	<u>Samarqand</u> , <u>Buxoro</u>
<u>Til(lar)i</u>	<u>Fors</u>
<u>Dini</u>	<u>Islom</u>
<u>Maydoni</u>	2,850,000 km ²

Somoniylar – IX-X-a.larda Movarounnahr va Xurosondagi sulola. Somoniylarning oilaviy nisabasi, ya'ni nomi ularning ajdodi bo'lmish Somonxudot ismi bilan bog'liq. Somonxudotning kelib chiqishi haqida turli xil ma'lumot va fikrlar mavjud. Abu Bakr Narshaxiy (10-a.) va Hamza Isfahoniy (10a.) keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, Somonxudot Balx viloyatidagi Somon qishlog'idan, alMukaddasiy (10-a.) ning ma'lumotiga ko'ra esa, u Samarqand viloyatidagi Somon nomli qishloqdan bo'lgan. "Sa'diya" nomli asar (17-a.) da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra,

uning asl ismi Arquq bo'lib, u Farg'onadan Termizga ko'chib kelgan va u yerda Somon nomli qishlog'iga asos solgan. O'rta asrlarda Buxoro, Farg'ona, Tohariston, Xuttalon va boshqa viloyatlarda ham Somon nomli qishloqlar bo'lganligi kayd etilgan. Bu ma'lumotlar "Somon" toponimi o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududlarida va undan tashqari yerlarda ham keng tarkalgan joy nomi bo'lganligidan dalolat beradi.

Ko'pchilik manbalar (Hudud alolam, Ibn Havqal, Beruniy, Gardizi va h.k.) ga ko'ra, Somonxudot sosoniylar davridagi mashhur sarkarda Bahrom Cho'bin (6-a.) ning 4 yoki 5pogonadagi avlodi bo'lgan. Baxrom Cho'binning

kelib chiqishi eftaliylar bilan bog'lik U sosoniylarga qarshi ko'zg'olon ko'tarib (590 y.) mag'lubiyatga uchragandan keyin Farg'onaga qochib kelgan va turkiy malikaga uylanib, umrining oxirigacha o'sha yerda kolib ketgan. Uning avlodlari ham o'zlarini podshoxdar oilasiga mansub deb hisoblaganlar va Sosoniylar davlatidagi shahanshoxlar oliy taxtiga da'vo qilganlar. Somonxudotning shajarasida keltirilgan ajdodlaridan ayrimlarining (Juba, Jamchan, Tamg'as kabi) turkiy ismlari bo'lgan. Shunisi diqqatga sazovorki, turkiylarning rivoyatlarida Somonyabg'u (ya'ni Somonxudot) turkiylarning O'g'uzxondan keyingi davrlarda yashagan ajdodlari katorida tilga olingan.

O'rta Osiyoga arablar bostirib kelganda, Somonxudot, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Balx viloyatidan Marvga Xuroson amiri Asad ibn Abdulloh IQushayriy (725/727 va 735/738 yillar)ning oldiga kelib, undan dushmanlariga qarshi kurolli yordam berishini suraydi. Arablar yordamida dushmanlarini yenggach, Somonxudot islom dinini kabul qiladi va o'g'lining ismini amirning sharafiga Asad ko'yadi. Asadning Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos ismli ug'illari alMa'munning Marvdagi saroyida xizmatda bulgan va Rofi ibn Lays ko'zyulonini bostirishda faol qatnashgan. Buning evaziga alMa'mun ularni bir nechta viloyatlarga amir etib tayinlaydi (819—820 y.). Xususan, Nuh — Samarqand amiri, Ahmad — Farg'ona amiri, Yahyo — Shosh va Ustrushona amiri, Ilyos esa Hirot amiri etib t'ayinlanadi. Ular dastlab Xuroson amirlari bo'lgan tohiriylarga tobe bo'lgan va harbiy kuch to'plab, Arab xalifaligining sharqiy chegaralarini qo'riqlab turishgan, shuningdek, shim.dagi turklarga qarshi bir necha bor yurishlar qilishgan. Nuh ibn Asad Isfijobni bosib olib (840 y.), uni o'ziga tobe qiladi. Shunday qilib, akaukaning to'ng'ichi bo'lgan Nuh ibn Asad Samarqand va Sug'dning katta qismini, shuningdek, Farg'ona va boshqa bir qancha shaharlarni o'z hokimiyati ostida birlashtiradi. Nuhning vafotidan keyin (842 y.) suloladagi yetakchilik uning ukasi Ahmad ibn Asad oilasiga o'tadi. Uning 7 ta o'tli bo'lib, ular otasining vafotidan keyin (866 y.) Movarounnahrning asosiy shaharlarida hokimiyatni o'z qo'llariga oladilar. Faqat Buxoro sh. tohiriylar

qo'lida edi. Ilyos ibn Asad vafotidan keyin unga qarashli bo'lgan Hirot shahrida ham hokimiyat S.ning qo'lidan ketdi. Tohiriylar hokimiyati tugatilgandan keyin (873 y.) Buxoroda bir muddat siyosiy beqarorlik va tartibsizliklar yuz berdi. Shunda S. oilasining boshlig'i bo'lgan Nasr ibn Ahmad mahalliy dehqonlar taklifiga binoan, Buxoroga ukasi Ismoil ibn Ahmadni hokim qilib yuboradi. Shunday qilib, Buxoro ham S qo'lga o'tib, ularning qudrati yana ham ortdi. Nasr davrida S turklarning Shovg'ar shahriga yurish qiladilar. Deyarli butun O'rta Osiyo yerlari ularning hokimiyati ostida birlashgandan keyin oila boshlig'i Nasr xalifa alMu'tamiddan Movarounnahrni boshqarishga maxsus yorliq oldi (875 y.). Ko'p o'tmay Ismoil akasi Nasrga bo'ysunishdan bosh tortib, unga qarshi ko'shin tortadi. Akauka qo'shinlari orasida bo'lib o'tgan jangda (888 y.) Nasr mag'lubiyatga uchraydi va natijada Ismoil ibn Ahmad butun hokimiyatni o'z qo'lga oladi. U Tarozi shahriga yurish qilib, uni bosib oladi (893 y.) va natijada boy Shalji kumush konlariga egalik kidali. O'sha yilning o'zida Ahmad Ustrushonadagi afshinlar sulolasining oxirgi vakillarini yo'q qiladi va viloyatni butkul o'zining hokimiyatiga bo'ysundiradi. S.ning kuchayib borayotganidan xavfsiragan arab xalifasi Ismoilni hokimiyatdan chetlatib, o'rniga Xuroson amiri Amr ibn Lays Safforiyni tayinlaydi (898 y.). Amr qo'shin bilan Movarounnahrni yo'l olganda, Ismoil unga qarshi chiqib, bir necha jangdan keyin uni mag'lubiyatga uchratadi (900 y.) va natijada safforiylar qarashli bo'lgan Xurosonni ham o'z yerlariga qo'shib oladi. Shunday qilib, Ismoil ibn Ahmad hukmronligi davrida Talas vodiysidan Xurosongacha bo'lgan yerlarni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. Ismoil ibn Ahmad vafotidan keyin (907 y.) hokimiyat uning avlodlari qo'lga o'tdi: Ahmad ibn Ismoil (907—914 yillar), Nasr ibn Ahmad (914—943 yillar), Nuh ibn Nasr (943-954 yillar), Abdulmalik ibn Nuh (954—961 yillar), Mansur ibn Abdulmalik (961—976 yillar), Nuh ibn Mansur (976—997 yillar), Mansur ibn Nuh (997—999 yillar), Abdulmalik ibn Mansur (999—1000 yillar). Shundan keyin mamlakatdagi hokimiyat qoraxoniylar sulolasining qo'lga o'tib, S. hokimiyati tugatildi. Sulolaning oxirgi vakili Ismoil alMuntasir (1000—1005

yillar) qoraxoniylar sulolasiga qarshi kurash olib borib, S. hokimiyatini tiklashga urindi, lekin natija bo'lmadi va oxiri o'zi ham o'ldirildi. Shu bilan S. sulolasi tarix sahnasidan butunlay ketdi.

Ma'muriy boshqaruv tizimi. S. sulolasining hokimiyatdagi vakillari amir deb atalgan bo'lib, ularga dargoh (saroy axli) va devonlar (harbiy boshqarmalar) bo'ysungan. Vazir mansabiga, asosan, Jayhoniylar, Bal'amiylar va Utbiylar aslzoda oilalarining vakillari tayinlanar edi. Jayhoniylar va Bal'amiylar ulardan eng mashhur vazirlardir. S.da vazir devonidan tashqari 10 devon bo'lib, ular uchun Buxorodagi Registon maydonida maxsus katta bino qurilgan edi. S.ning boshqaruv tizimi, asosan, mahalliy dehqonlar, aslzodalar va din arboblardan tashkil topgan bo'lib, har bir amaldor arab va fors tillarini mukammal bilishi, shuningdek, diniy va dunyoviy fanlardan xabardor bo'lishi shart edi. Bunday odamlarni ahl alqalam (qalam axli) deb atashgan. Saroy harbiy qo'mondonlari hojib, Xuroson lashkarboshisi esa sipoxsolor deb atalgan bo'lib, boshqaruv ishlariga katta ta'sir o'tkazib kelishgan. S.ning soliklardan kelib tushadigan yillik daromadi 45 mln. dirhamni tashkil qilgan bo'lsa, bu mablag'dan 20 mln.ga yaqini boshqaruv tizimida xizmat qilayotgan amaldorlar va qo'shin ehtiyojlariga sarflangan. Xizmat uchun ish xaqi hammaga har 90 kunda, ya'ni bir yilda 4 marta muntazam ravishda berib turilgan.

X-asr boshida S. hukmronligi ostidagi mulklar quyidagi viloyatlardan tashkil topgan: Buxoro, Samarqand, Ustrushona, Farg'ona, Shosh, Isfijob, Xorazm, Kesh, Nasaf, Chag'oniyon, Xuttalon, Badaxshon, Balx, Tohariston, Guzganon, G'archiston, Marv, Hirot, G'ur, Nishopur va Go'rgon. Viloyatlarda boshqaruv g'okimlar qo'lida bo'lib, ular amir tomonidan tayinlangan. Bu mansabga ko'pincha mahalliy yer egalari va viloyat hokimlari xonadoni vakillari tayinlanar edi. Shaharlarning boshqaruvi raislar qo'lida bo'lib, ular hokimlar tomonidan tayinlangan. Mas, S. hukmronligi davrida Tohariston shaharlarida banichuriylar sulolasi, Xurosonda simjuriylar sulolasi, Guzganonda farig'uniylar sulolasi, Xorazm va Isfijobda

mahalliy turkiy sulolalar, shuningdek, Chag'oniyon, G'azna, Sijiston, G'ur va G'archistonda mahalliy sulolalar hukm surgan.

S.ning saroy ma'muriyati ichidagi amaldorlarning bir qismini forelar, qolgan qismini mahalliy turkiylar tashkil etgan. Viloyatlarda ham xuddi shunday ahvol kuzatilgan. Harbiy va mudofaa ishlari to'la turkiylarning qo'lida bo'lgan. 10-a. ga kelib Isfijob, Tarozi va boshqa shaharlarning turkiy aholisi ko'plab islom dinini qabul qilganliklari tufayli S.ning boshqaruv tizimida ularning salmog'i oshib ketgan. Xususan, Alptegin, Sabuktegin, Alp Arslon, Alitegin, Simjuriy, Bektuzun, Qorategin, Ayach, Altuntosh, Banichur, Tosh singari mashhur tarixiy shaxslar va ularning avlodlari shular jumlasidandir. Shuningdek, turli viloyatlar va shaharlarni Inaj, Ilmangu, Sabukra, Boyqaro, Alxunmish, Boytuz, Tuztosh, Kunbosh, Suboshitegin, Kamtegin, Fayozbek, Xumorbek, Xumortosh, Oytug'dibek, Bilgategin, Fategin, Shukrtegin, Aytug'mish va boshqa g'ukmdorlar boshqargan.

Hokimiyat S. qo'lidan ketib, qoraxoniylar qo'lga o'tgandan keyin ularning deyarli barchasi ikkilanmay yangi hukmdorlar xizmatiga o'tishgan. Shuning uchun Bug'roxi 992 yilda Isfijobdan yurish qilib, Samarqand va Buxoroni egallaganda, unga hech kim qarshilik ko'rsatmagan. Chunki mahalliy aholi, shu jumladan, amaldorlar ham, ularga Movarounnahrning arablargacha bo'lgan asl egalari sifatida va endi islom dinini qabul qilib, o'z yerlariga qaytib kelgan hukmdorlar deb qaraganlar.

Shunday qilib, S boshqaruv tizimi aniq va mukammal ravishda tuzilgan bo'lib, o'zida davlatchilikning o'sha davrda eng ilg'or an'analarini mujassamlashtirgan. Lekin qonunchilik nuqtai nazaridan S. hukmronligini teng huquqli mustaqil davlat sifatida qarash haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki u davrda, ya'ni 9— 10-a.larda, Abbosiylar xalifaligida markaziy hokimiyat zaiflashib, viloyatlardagi mahalliy hokimiyat kuchaygani va deyarli mustaqil ichki siyosat olib borгани bilan, barcha mahalliy sulolalar, shu jumladan, S. ham, rasman bo'lsada, Bag'dod xalifalariga bo'ysungan edilar. Ular faqat ma'muriy boshqaruvda va xo'jalik ishlarini yuritishda xalifalar tomonidan berilgan keng huquklar va o'zini o'zi boshqarish vakolatlariga

ega bo'lganlar. Shariat nuqtai nazaridan g'am, xalqaro huquq nuqtai nazaridan ham, Xuroson va Movarounnahr ma'muriy jihatdan Abbosiylar xalifaligining ajralmas qismi, S. esa xalifalarning shu viloyatlardagi hokimiyatni boshqarish uchun tayinlangan voliyarlari hisoblangan. Demak, S.ning hukmronligi davlatchilik sifatida emas, balki Abbosiylar xalifaligining tarkibida Bag'doddan tayinlangan va nisbatan mustaqil ichki siyosat olib borgan mahalliy hukmdorlar sulolasining hokimiyati sifatida baholanishi mumkin.

Madaniyati. S. boshqaruv tizimining tashkil topishi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko'tarilish, madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshlaydi. Forsiydaryda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlandi. 9—10-a. larda, ayniqsa, Buxoro sh. madaniy jihatdan yuksaladi. Poytaxtda amir saroyida turli sohalarga oid qo'lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutubxona barpo etiladi.

Movarounnahrda me'morlik va san'at yangi taraqqiyot bosqichiga o'tdi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda ko'plab saroy, masjid, Madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim va karvonsaroylar qurildi.

Somoniylar davlatining vujudga kelishi



Bu davrda [Movarounnahrning Samarqand](#), [Farg'ona](#), [Toshkent](#) va [Ustrushona](#) viloyatlarida noiblik qilayotgan somoniylar xonadonining siyosiy hayotida ham asta-sekin birmuncha o'zgarishlar yuz beradi. Yurtga awal Nuh, so'ngra Ahmad boshchilik qiladi. Har biri o'z hukmronligi davrida o'z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadilar.

Ahmad vafotidan ([865-yil](#)) keyin uning o'g'li Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. Buxoro vohasi, Naxshab ([Qashqadaryo](#)), Chag'onrud ([Surxondaryo](#)) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni [Xurosondan](#) ajratib olish choralarini ko'radi. Tohiriylar davlatining barham topishi bilan vaziyat tubdan o'zgarib, istiqlol uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. O'z holiga tashlab qo'yilgan Buxoro ahli hatto saforiylarga tobe bo'lishni xohlamaydi. Shahar zodagonlari somoniylarga murojaat qilib, Samarqandga Nasr huzuriga elchilar yuboradilar, undan Buxoroni o'z qo'l ostiga olishni va somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim qilib yuborishni so'raydilar. Nasr bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, ukasi Ismoilni (874) Buxoroga noib qilib yuboradi.

Shunday qilib, IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tib, u o'z mustaqilligini tiklab oladi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Nasr o'zini butun Movarounnahrning boshlig'i deb hisoblay boshlaydi. Garchi ukalari Shosh viloyatining noibi Yoqub va Farg'ona hokimi Asadlar o'z nomlari bilan chaqa pul zarb etib o'zboshimchalik qilsalar ham, ammo u somoniylar hukmronligi tarixida birinchi bo'lib kumush dirham zarb etadi. Kumush tangalar chiqarish davlat mustaqilligining ramzi hisoblanib, to shu vaqtgacha xalifalik viloyatlarida faqat tohiriylargina bunday dirhamni zarb etish huquqiga ega edilar. Shunday bo'lsa-da, Buxoro noibi Ismoil akasi Nasrga itoat qilishni istamaydi. O'ziga berilgan viloyatni mumkin qadar iqtisodiy jihatdan mustaqil idora qilishga intiladi. Samarqandga Nasrning xazinasiga yuboriladigan har yilgi soliqlarni turli bahonalar bilan to'xtatib qo'yadi. Natijada aka-uka o'rtasida adovat paydo bo'ladi. U [888-yildagi](#) jangga olib keladi. Jangda Nasr

qo'shinlari tor-mor keltiriladi. Shu yildan boshlab Ismoil butun Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo'lib oladi.

Ismoil Somoniy

[Ismoil Somoniy](#) o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U [Movarounnahrni](#) birlashtirgach, mustahkam feodal davlatni tuzishga intildi. U o'z Vatanida barqaror tinchlikni ta'minlab, uni mustahkamlashda hukmronlik qobiliyatining hamma nozik xususiyatlarini ishga soldi. Avvalo katta qo'shin to'plab, ko'chmanchilar dashtiga askar tortdi. [8933-yilda Taraz](#) shahrini fath etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba berdi. Bu somoniylar davrida ko'chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish bo'ldi. Natijada dashtlik qabilalarning Movarounnahr viloyatlariga bo'lgan uzluksiz bosqinlari barham topib, o'troq aholi endilikda vohalar atrofi bo'ylab yuzlab kilometrga cho'zilgan mudofaa devorlari-yu, son-sanoqsiz qal'alarni bino qilish va ularni muttasil ta'mirlab turishdek og'ir va mashaqqatli mehnatdan va tashvishdan forig' bo'ldi. Xuddi shu davrdan boshlab, 300 km dan oshiqroq masofada [Buxoro](#) vohasining atrofini o'rab turgan qadimiy mudofaa inshooti Kampirak devorining har yilgi odatiy hashari to'xtalib, u qarovsiz qoldirilgan. Narshaxiyning yozishicha Amir Ismoil o'zining kuchli qo'shinlarini nazarda tutib, "Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman, — deb aytgan ekan.

Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishib, bu diyorda somoniylar davlatining tobora kuchayib borishi shubhasiz sharqiy viloyatlardan muttasil undirib olinadigan katta boyliklardan mahrum bo'lgan Arab xalifaligini, bir tomondan, nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomondan cho'chitar ham edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to'qnashtirishga va bu ikki davlatni har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda, ma'lum darajada, o'z ta'sirini qayta tiklashga harakat qiladi. [900-yilda](#) ular o'rtasida boshlanib ketgan urush Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilning bunday ulkan davlatini tan

olishga va unga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo'ldi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirdi. Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham berdi va uni o'z davlatiga qo'shib oldi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo'lgan zamonasining eng yirik mustaqil feodal davlati tashkil topdi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo'lgan hukmdorlar — amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar.

Movarounnahr mustaqilligining barqarorligi awalambor markazlashgan mustahkam hokimiyatning qaror topishiga bog'liq edi. Buni yaxshigina anglagan somoniylar o'z tasarrufidagi ulkan mamlakatni boshqarishda dastawal ixcham davlat ma'muriyatini tashkil etdilar. U podsho dargohi va devonlar — markaziy hokimiyatdan iborat edi. Dargohda amir xarami va qarorgohi hamda saroy a'yonlari, navkar va xizmatkorlarining turar joylari bo'lardi. Narshaxiyning yozishicha, Somoniylar davlati asosan vazir, mustavfiy, amidul mulk, sohibi shurat kabi o'nta devonlar boshqaruvida idora etilardi. Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanar va davlatning ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi. Nasr II (914—943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi inana shu maxsus binoga joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniyy va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan. Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan savodli asilzodalardan tanlab olingan. Shubhasiz, bu o'rta asrlarning o'ziga xos feodal-amaldorlik madaniyati edi. Qadimiy an'analarga asoslangan bu madaniyat somoniylar davrida ancha-muncha boyitilgan edi. Markaziy mahkama viloyatlardagi mahalliy boshqarmalar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Viloyatlarda barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat devonlari bir tomondan mahalliy

hokimga, ikkinchi tomondan esa, markaziy mahkamaning tegishli devoniga bo'ysunar edilar. Viloyat hokimlari ba'zan vazir deb yuritilardi. Mansabdorlarning xizmat haqi uchun davlatning yillik daromadi (budjeti) ning deyarli yarmi sarf etilar edi. Shu bilan birga X asrlarda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlaydi. Ayniqsa u XI asrda keng yoyiladi. Bunday mulkka „iqto“, unga ega bo'lgan mulkdorlar „muqto“ yoki „iqto 'dor“ deb yuritilardi. Iqto' tarzida esa ayrim viloyat, voha yoki shaharlar va tumanlar hadya etilgan. Iqto' dastawal asosan oliy tabaqa zodagonlar: sulola' a'zolari—amirzodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Iqto' mulklari awalda bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan-naslga o'tkazilmagan. Iqto'dorlar hadyaga berilgan mulklarga hali to'la egalik qila olmaganlar. Ular iqto' yerlaridan tushadigan daromad yoki uning ma'lum qisminigina yig'ib olish huquqiga ega bo'lganlar, xolos. Butun bir viloyat iqto' qilib berilgan noib — vazirga ba'zan o'z nomi bilan chaqa pul zarb etish huquqi ham berilar edi. Bu shubhasiz, O'z navbatida markaziy hokimiyatni kuchsizlantirib, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlarning kuchayishiga olib edi.

Somoniylar va islom dini


Movarounnahr mustaqillikka erishib, Somoniylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom dini mhoniylarimng hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan jome' masjid, xonaqo (g'aribxona) va nomozgoh (iydi ramazon va iydi qurbon ibodatlarini o'qiladigan sajdagoh) lar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh madrasalardan bin Buxoro shahrida qad ko'tardi. Buxoroning bu qadimiy madrasasi shaharning Darvozayi Mansur mahallasida xon hammomining yonida joylashgan edi. Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda „ustod“ deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom tark

etilib, din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi „shayxulislom“ nomi bilan yanada ulug'landi. Ustoddan keyin „xdtib“ lar turardi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat beradilar. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-u xarajatlari uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi yerlar kengayib, yangi turdagi diniy-feodal xo'jaligi tarkib topadi.

Somoniylar davlatida mudofaa ishlari

Somoniylar tashqi va ichki dushman xurajlaridan mamlakatni muhofaza qilish masalasiga katta e'tibor beradilar, Xususan Ismoil Somoniy yaxshi qurollangan harbiy qo'shkuva maxsus saroy muntazam sarbozlar qismini tuzadi. Muntazam sarbozlar oliy dargoh va shaxsan armrni hamda uning xaramini qo'riqlash uchun turk g'ulomlaridan tuzilgan edi. Turkiston va Movarounnahr harbiy xizmatchi, mohir chavandoz turk o'smirlarini qadimdan doimiy ravishda voyaga yetkazib kelgan bo'lsa ham, ammo faqat somoniylargina turk yigitlarini birinchilar qatorida saroyning shaxsiy sarbozlari safiga tortgan edilar. Saroy sarbozlariga qabul qilingan o'spirin turk g'ulomining harbiy xizmati ma'lum muddatga va qat'iy belgilangan tartibda o'tar edi. Yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar „hojib“ lavozimiga ko'tarilg Hojiblarning boshlig'i „hojibul hujob“ yoki „hojibul buzruk“ deb yuritilar edi. Sunday unvon Somoniylar davlati saroyidagi oliy unvon hisoblanardi. Hojiblar, ayniqsa hojib-ul hujob saroyda katta nufuzga ega edi. U saroyda turar va dargohning ishlarini boshqarar edi. Somoniylar sarbozlardan tashqari ozod mehnat ahlidan tuzilgan harbiy qo'shinlarga ega edilar. Harbiy qo'shin va uning ta'minoti bilan „ariz“ boshliq devoni ariz deb atalgan maxsus mahkama shug'ullanar edi. Ariz qo'shinlarga maosh berar, uning intizomi, yarog'-aslahasi, oziq-ovqati va otlarining yem-xashagi taminoti bilan shug'ullanar edi. Qo'shinlarga xizmat haqi har uch oyda, ya'ni yiliga to'rt marta to'lanar edi.

Shunday qilib, IX—X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar davlati tashkil topdi. Oʻrta asrlar mulkchilik zamonining bu yirik davlatini boshqarishda hukmdor xonadon Sharqning qadimiy davlat boshqaruvi anʼanalariga suyanib, muntazam harbiy qism va kuchli harbiy qoʻshinlarga ega boʻlgan markazlashgan boshqaruv mahkamasini tashkil qildi. Oʻrta asrlarning bu yirik davlati oʻzining boshqaruv tizimi jihatidan shubhasiz Oʻrta Osiyoda yirik mulkdorlar davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyoti tarixini oʻrganishda alohida ahamiyat kasb etadi.





IX asrda Movarounnahrning siyosiy hayotida ham o'zgarishlar yuz berdi. Yurtga avval Nuh, so'ngra Ahmad boshchilik qildi. Har biri hukmronligi davrida o'z nomlaridan **misdan** chaqalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning o'g'li Nasr Samarqandni markazga aylantirdi. Ukasi Ismoilni esa Boxroga hukmdor qildi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytamanki, O'zbekiston tarixida Somoniylar davlatining o'rnini beqiyos bo'lib bu davlatga asos solgan Ismoil Somoniydir. U o'rta asrlarning qobiliyatli, shijoatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko tajribalari davlat arbobi edi. So'zining isboti mamlakatni boshqarishda birinchi qilgan ishi mamlakat tinchligi edi, ya'ni mamlakatga xavf solib turgan ko'chmanchi qipchoqlardan hududni tozaladi. Va Ismoil o'zini "men tirik ekanman, Buxoro devori menman" degan gaplari so'zining isboti. U Movarounnahr tarixida 1-bo'lib markazlashgan davlatga asos solgan. Uning davrida islom dini ham rivoj topdi.

Somoniylar davridan boshlab islom dini bilan shug'ullanuvchi ustod atamasi shayxulislom nomi bilan almashtirilgan. Mudofaa ishlari, qishloq xo'jaligi ishlari, chorvachilik va hunarmandchilik keng rivoj topdi. Bu davrdan boshlab yer egaligining yangi turi ya'ni "iqto" yerlar berila boshladi, bu yerlar davlat ishlari uchun ba'zi kishilarga beriladigan sovg'a yerlar hisoblanib, u merosiy emas edi va bu unvon sohiblari davlatga soliq to'lar edilar. Keyinchalik Qoraxoniylar davriga kelganda esa bunday iqto' yerlar maydoni kengaya bordi va merosiy mulkka ayala boshladi. Yer egaligining shakllaridan biriga aylana bordi. Ichki va tashqi savdoda ham rivojlanish sodir bo'ldi. 4 xil tanga pullar zarb qilina boshladi. Bu davrdan boshlab tashqi savdoda **"sarroflik cheklari"** ishlatila boshlangan. Somoniylar hayotida 900-yillardan keyingi davr siyosiy vaziyat keskinlashuvi davri hisoblanib, 961-yilda Buxoro harbiy askarlarining g'alayoni ko'tariladi. Natijada, Somoniylar davlati nihoyatda zaiflashib qoladi. Bugungi kunda mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan buyon esa biz yoshlar uchun katta sharoitlar yaratilmoqda. Bizning bosh maqsadimiz mana shu yaratuvchanlik g'oyalariga sodiq bo'lish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I.A.Karimov.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T."Sharq".1998.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far anNarshaxiy, Buxoro tarixi [fors tilidan A. Rasulev tarjimasi], T., 1991; Bosvort K. E., Musulmanskiye dinastii, M., 1971; Kamaliddinov Sh. S, Istoricheskaya geografiya Yujnogo Sogda i Toharistana po araboyazichnim istochnikam IX — nachala XIII vv., T., 1996; Negmatov N. N., Gosudarstvo Samanidov (Maverannaxr i Xorasan v IX —X vv.), Dushanbe, 1977; Karayev O., Istoriya Karaxanidskogo kaganata X — nachalo XIII vv., Frunze, 1983.

A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi.Toshkent."A.Qodiriy".2003 .

A.Muhammadjonov.O'zbekiston tarixi. T."Sharq".2009

B.Ahmedov.O'zbekiston tarixidan
manbaalar.Toshkent."O'qituvchi".1991.

Azamat Ziyo.O'zbekiston davlatchiligi tarixi.Toshkent."Sharq".2003 yil.